



## MILLIY UYG'ONISH DAVRI FARG'ONA VODIYSI VA QORAQALPOQ SHE'RIYATIDAGI POETIK TURKUMLARNING QIYOSIY TADQIQI

**Barziyev Oybek Xabibullayevich**

Farg'ona davlat universiteti  
filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, PhD.

**Annotatsiya:** Maqolada milliy uyg'onish davri adabiyoti Farg'ona vodiysi ijodkorlari Abdulkmajid Hafiz va Pirimqori qalamiga mansub bo'lgan ayrim she'rlar qoraqalpoq shoiri Berdaq ijodiga qiyoslangan holda tekshirilgan. Mazkur shoirlarning poetik merosidagi mushtarak jihatlar ularning mavjud mustabid tuzumga ma'rifat orqali qarshi chiqqan holda yurt ozodligi uchun qayg'urishi, aholining milliy dunyoqarashi va ma'naviy olamini yuksaltirishga da'vat qilishlari bilan bir-biriga yaqin ekanligi haqida umumlashma fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'z va iboralar:** xalq uchun g'amxo'rlik qilish, yigit kishining yurt oldidagi mas'uliyatini eslatish, "Qilg'il" radifli murabba' va "Eshit" radifli g'azal tahlili, yelpig'ich detaliga yuklangan ijtimoiy mazmun, yurt ozodligiga bo'lgan ishonch.

**Аннотация:** В статье некоторые стихотворения Абдулмажида Хафиза и Пиримкори, создателей национальной ренессансной литературы Ферганской долины, сравниваются с творчеством каракалпакского поэта Бердака. Общим в поэтическом наследии этих поэтов является то что они близки друг другу заботой о свободе страны в борьбе с существующим авторитарным строем через просвещение, призывом к поднятию национального мировоззрения и духовного мира населения.

**Ключевые слова и выражения:** забота о народе, напоминание об ответственности молодого человека перед страной, анализ газели «Килгил» и «Эшит», социальное содержание, загруженное в детали веера, о свободе страны уверенность.

**Annotation :** Abstrakt in the article, some poems written by Abdulkmajid Hafiz and Pirimqori, the creators of national renaissance literature of the Fergana Valley, were compared to the work of the Karakalpak poet Berdaq. Generalized opinions are expressed that the common aspects of the poetic heritage of these poets are their concern for the freedom of the country against the existing autocratic system through enlightenment and their call to raise the national outlook and spiritual world of the population of a young man to the country, analysis of the ghazal of "Qilgil" and "Eshit" ghazal, the social content loaded on the detail of the fan, about the freedom of the country confidence in.

**Key words and expressions:** caring for the people, reminding of the responsibility of a young man to the country, analysis of the ghazal of "Qilgil" and "Eshit" ghazal, the social content loaded on the detail of the fan, about the freedom of the country confidence in.

Milliy uyg'onish davri adabiyotining she'riyatida qoraqalpoq millatining ko'hna tarixi, o'ziga xos bo'lgan milliy an'analar, turmush tarzi, tili va diniga bo'lgan e'tibor to'laqonli aks etadi. Milliy uyg'onish davri adabiyotining qoraqalpoq shoiri





Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq (1827-1900) she'riyati Andijon adabiy muhitiga mansub bo'lgan Pirimqori (1855-1938), Abdulmajid Hofiz (1870-1967) ijodi bilan mushtarak jihatlari mavjud.

O'tgan asrning boshlarida O'rta Osiyo aholisining turmush tarzi ijtimoiy-siyosiy, ma'anaviy-madaniy sohalarda qoloqlikka botib borayotganligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, ilm-ma'rifat sohasida Turkistonimizning ancha yuksalishdan ortda qolib borayotganligi asl haqiqat edi. Bu davr adabiyotida davr muammolari lirik asarlarda ham o'z ifodasini topib bordi. Bu kabi muammolarga murojjat qilish qoraqalpoq, va o'zbek she'riyatida bir davrda amalga oshirilganligi hamda ishqiy muammolarning ifolash orqali mushtaraklikka ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Davrning lirik asarlarda radiflarga yuklangan so'z va birikmalarda ozodlik tomon undash, qofiyadosh so'zlardan keyin kelgan fe'l zamoni shakllarida istak yoki buyruq mayli ko'rinishlari birdek qo'llanganligi ham qoraqalpoq va o'zbek she'riyatida qo'llangan ijodiy mushtaraklikdan dalolat beradi.

O'zbek millatiga qardosh sanalgan qoraqalpoq adabiyotining yirik vakili Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq ijodida o'tgan asr boshlaridagi xalq hayotiga achinish, o'lkada bo'lib o'tayotgan voqeliklardan to'g'ri xulosa chiqarish, xalqni ozodlikka da'vat qilish ustuvor sanalgan. O'z navbatida lirik asarlarga global mavzu sifatida kirib kelgan ozodlikka chaqiriq mavzusi Andijon adabiy muhitiga mansub bo'lgan milliy uyg'onish davri vakillari: Pirimqori va Abdulhamid Hofiz she'riyatida ham o'ziga xos o'ringa ega bo'ldi.

Qoraqalpoq xalqining sevimli shoiri Berdaq qalamiga mansub 35 banddan iborat bo'lgan "Xalq uchun" nomli murabba' shaklida yozilgan she'rda kishilarni, ayniqsa, yigitlarni o'zi tug'ilib o'sgan yurtini ozodlikka olib chiqishga da'vat, o'lkani himoya qilishga chaqiriq ustuvor sanaladi. She'rnинг dastlabki bandi jadid shoiri Abdurauf Fitratning yurt himoyasiga nisbatana qilgan da'vat ruhida bitilgan "O'gut" nomli she'rini yodga soladi. She'rda Abdurauf Fitrat qo'llagan quyidagi uslub saqlangan bo'lib, yigit kishining tug'ilib o'sgan Vatani oldidagi mas'uliyat va burchlari eslatib o'tilgan:

Yigit bo'lsang arslon kabi tug'ilgan,  
Hamisha sen xizmat etgil xalq uchun,  
Yigit bo'lsang arslon kabi tug'ilgan,





O'zim demay, g'amxo'rlik qil xalq uchun<sup>1</sup>.

Berdaq she'rida yigit kishining gardaniga ko'plab mas'uliyatlar yuklanganligi ayon bo'lib boradi. She'r bandlari osha yigit kishining xalq ozodligi va obodligi uchun qiladigan xizmatlari va vazifalari ham birin-ketin sanab beriladi:

Yigit kishi odam dilin eritar,  
Aytgan so'zin boldan shirinroq aytar,  
Bir aytgan so'zidan qaytmasdan ketar,  
Aynimasdan xizmat etar xalq uchun

satrlari orqali o'zbek xalqi tomonidan ko'p ishlatiladigan paremiologik birlik "Arslon izidan – yigit so'zidan qaytmas" ma'nosi teran anglashiladi.

She'rning keyingi bandlarida yurt zolimlariga tanqidiy munosabat bildiriladi. Ularning xasisligi faqat o'z manfaatini va nafslarini o'ylashlari tilga olinadi:

Zolimlar tinglamas faqirning zorin,  
Ular o'ylar o'z foydasin, o'z korin,  
Hech qachon zolimlar qo'lfdagi borin,  
Ep ko'rmaslar, bor bo'lsa-da, xalq uchun.

Berdaq fikricha, yigit kishi ma'rifatli, ilm-fandan xabardor bo'lishi kerak. Shundagina u shaxsiy fikr va o'ylariga tayangan holda yurtni ozodlikka olib chiqishi mumkin:

Yigit degan yaxshi bilimdon bo'lur,  
Bilim, hunar yigit uchun shon bo'lur,  
Aqlsizlar ishi ko'p yomon bo'lur,  
Axmoqlar hech xizmat etmas xalq uchun.

Andijon adabiy muhitining yirik vakili Pirimqori qalamiga mansub bo'lgan murabba' va muxammas janrida bitilgan she'rlarda ham ozodlikka da'vat qilish, o'z davrining hukmdorlaridan najot kutish motivlari ko'zga tashlanadi. Shoirning she'rlarida ishqiy mavzu yetakchilik qilsa-da, lekin uning ortida yurt ozodligi va obodligini ko'rishga bo'lgan orzu hukmronlik qiladi. O'z davrida fikri va zikri bir bo'limgan xalqqa qarata bitilgan murabba' quyidagi band bilan boshlanadi:

Ey, isming erur Fattoh,  
Dil qulfin vo qilg'il.

<sup>1</sup>Бердақ шеъриятидан / Қорақалпок тилидан Миртемир таржимаси / Тузувчи: Нурмуҳаммедов М. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983.- Б.9.





Zikring ila fikringni,  
Ko'nglum ichra jo qilg'il<sup>2</sup>.

Murabba'da shoir yashab ijod etgan muhit arz va faryod qilish orqali yurt rahnamolaridan marhamat kutish davrlariga to'g'ri kelganligiga quyidagi band orqali amin bo'lamiz:

Arzimni eshitmaysan,  
Faryodima yetmaysan,  
Bir marhamat etmaysan,  
Fazlingni ato qilg'il.

Murabba'da lirik qahramon jafo chekayotgan bo'lsa ham, g'amga giriftor bo'lganligiga shukr qiladi. Chunki uning qalbida ozodlik tantanasiga bo'lgan ishonch hali so'nmagan:

Joniga jafo aylab,  
Yurubman, xato aylab,  
O'z ishqining ato aylab,  
G'ayridin sivo qilg'il.

Bandlarda ilohiy ishq tushunchasiga Yaratgandan marhamat kutish, ozodlikka bo'lgan dahvat tushunchalari "Qilg'il" radifiga yuklangan bo'lib, bu ishqdan o'zgasi kerak emasligi ayon bo'ladi.

Shoir o'zi yashab ijod qilayotgan muhitni vodiy deya ta'riflagani holda chekayotgan g'ami tufayli ko'z yoshi to'kayotganligiga ishora qiladi:

Bu vodiyda hayronman,  
G'amdin siyna bironman,  
Ajab diyda hayronman,  
Ko'z yoshim guvoh qilg'il.

Murabba'da ko'tarilgan muammoga hamohang bo'lgan Pirimqorining "Eshit" radifli muxammasi ham ehtiborga molik. Unda ham ishqiy muammo masalalari yetakchilik qilgan bo'lsa-da, lirik qahramon kechinmalari hukmdorning eshitishiga da'vat qilgan holda oydinlashadi. Zulm va sitamlar o'tkazishda tengi yo'q yurt egalariga nisbatan aytilgan quyidagi satrlar oddiy xalq hayotiga qiziqish, ularning

<sup>2</sup>Кўхна садолар (Манзур, Ожиз, Мунтазир, Бимий, Мухиб, Пиримқори, Нофиз, Мушток, Мавжий) / Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Мадғозиев И. Проф.Куронов Д.нинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б.126.





turmush tarzi bilan qiziqishi, ularning holi haqida so'rab bilishi umuman yo'q ekanligi bilan boshlanadi:

Muncha ham zulmi sitamlar aylading, yo'q pursishing,  
Men kabi oshiqni kuydirmoq erur doim ishing,  
Nomunosibdur o'zing odillig'ingga qilmishing,  
Dod etarman ko'ksimi, majruh qildi kohishing,  
Ko'z yoshim qoni-la yozgan she'r-ashhorim eshit<sup>3</sup>.

Darhaqiqat, shoir yashab ijod etgan davr ko'z yosh bilan she'rlar yozadigan pallaga to'g'ri kelganligini u turli tahqirlardan majruh bo'lgan ko'ngil holatlari orqali ifoda etadi. O'zini adolat bobida odil qilib ko'rsatayotgan yurt egalari aslida qilmishlari o'zgacha ekanligini yoritmoqchi bo'lgan shoir yurtda zulm va sitamlar ortib borayotganligidan aziyat chekadi.

Shoir bu jahonda ko'rgan-kechirganlari haqida armon bilan so'zlaydi. Shu sababli u yor (hukmron mafkura ma'nosida) oldida g'arib ekanligini aytgan holda ohu zorini eshitishini xohlaydi:

Bu jahong'a kelganimdin ko'bturn armonim meni,  
Yig'lay-yig'lay, bu tanimdin ketti darmonim meni,  
Roziman, yor olida chiqsa g'arib jonim meni,  
Munis o'lsa tor lahadda nuri iymonim meni,  
Kosh bo'lg'aymu tuyassar, ohimi zorim eshit.

Muxammasning keyingi bandida jamiyatda yuz berayotgan jabru jafolarni ko'rgandan ko'ra o'limni yaxshiroq, deb biladi:

Na qilurman, bu jahonda hasrato mundog' yurub,  
Yuz tuman turluk jafojo'lar o'zga ko'rub,  
Yo'l topolmay, doim isyon loyig'a poyim surub,  
Qayda borsamkim, hato devorig'a boshim urub,  
O'lganim behroq erur, yurguncha, dildorim, eshit.

Ozodlikka da'vat qilish ruhi bilan sug'orilgan yana bir g'azal muaalifi andijonlik shoir Abdulkajid Hofiz ham sanaladi. Professor Dilmurod Qur'onov umumiyy Rahbarligi ostida chop etilgan so'nggi ilmiy nashrlarning birida shoir haqida "Abdulloh qori o'g'li Abdulkajid hofizi Qur'on, buyuk alloma, faqih, zullisonayn shoir, adib,

<sup>3</sup>Yuqoridagi asar. – B.134.





sharq falsafasi bilimdoni, xattot, qozi, mutasavvif, valiy zot bo'lgan. "Qozi domla", "Farishta qozi", "Hastdomla" ("Hazrat domla"ning qisqartirilgan shakli) laqablari bilan mashhur bo'lgan", deb ma'lumotlar berilgan.

Hofizning bir g'azaliga "Dar madhi mirucha, ya'ni yelfuguchki dar tobiston ayyom ishtidod garmayi havo jihat garm shudagon rohatu orombaxsh ast" – Yelfugich madhida, kuzda, ayni juda issiq havo zamonida issiq bo'lganlar uchun rohat va orombaxshdir, deb sarlavha qo'yilgan. Shoir g'azalida yelpig'ich detalidan g'oyaviy maqsadini ochish yo'lida mahorat bilan foydalangan:

Ol qo'lg'a yelfuguchni, ul dilraboni yelfu,  
Artib araq yuzidin, ul bohayoni yelfu<sup>4</sup>.

Bir qarashda ishqiy mazmun yetakchilik qilayotgandek tuyuladigan g'azal baytlarida yurt ozodligiga bo'lgan tashna qalb orzulari anglashiladi.

Bizga ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidan shabada detali ozodlik, hurlik ma'nosida qo'llanilib kelgan. Ayniqsa, o'zida ozodlik, hurlik mazmuni bilan bog'liq bo'lgan shabada detali hazrat Alisher Navoiy dostonlarida ko'p bor uchraydi. Shoir yelpig'ichdan hijron balosiga giriftor bo'layotgan kishilarni yelpib, ozodlikka chiqishlariga ko'mak berishini so'raydi:

Chun mubtalo emassan hijron balosig'a san,  
Holin qachon bilursan, har mubtaloni yelfu.

Qaysi karamli erdin bu yelfuguch asardur,  
Xolis ani haqqig'a aylab duoni, yelfu.

G'azal baytlarida qo'llangan issiqning shiddati o'lkaning qamaldagi ahvoli ma'nosiga majoz qilingan holda qo'llangan bo'lib, keyingi baytlarda yelpig'ich har bir oshno va boy, kambag'alni birdek yelpib, ozodlik tomon olib chiqishiga nisbatan ishonch va da'vat qilinadi:

Gar rohat istar ersang, issig'ning shiddatidin,  
Yelfu o'zingniyu ham har oshnoni yelfu.

Majlisda farq qilmay boy ila kambag'alni,  
Befarqu betafovut shohu gadoni yelfu.

<sup>4</sup>Yuqoridagi asar. – B.171.





Shoir jamiyatda boy va kambag‘al hamda shohu gado teng huquqli, ijtimoiy mavqeい barobar bo‘lishini amalga oshishiga xizmat qilayotgan yagona detal – yelpig‘ichga ko‘plab g‘oyaviy mazmun yuklagan. Sababi she’rning lirik qaharamoni tutqun yurt qurboni bo‘lishni istamay, hijron balosidan, ya’ni o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan diyoridan ayrilib qolishidan hadiksiragan holda yashaydi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq she’riyatida yurt ishqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish an’anasi milliy uyg‘onish davri o‘zbek she’riyatida majoziy ishqni kuylash g‘oyalari bilan mushtarak sanaladi. Qoraqalpoq she’riyatida kishining tug‘ilib o‘sigan yurtiga sodiqlikka da’vat qilish, uni yot “ko‘zlar”dan himoya qilish, milliy istiqlol g‘oyalari undash ustuvor bo‘lsa, Andijon adabiy muhitining vakillari ijodida hukumat rahbarlariga Yaratgandan insof tilash, kundalik turmush tarzida yuz berayotgan salbiy illatlarning tezroq barham topishini istash motivlari ustuvorlik qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdaq she’riyatidan / Qoraqalpoq tilidan Mirtemir tarjimasi / Tuzuvchi:Nurmuhammedov M. – Toshkent: O‘zbekiston, 1983.
2. Ko‘hna sadolar (Manzur, Ojiz, Muntazir, Bimiy, Muhib, Pirimqori, Hofiz, Mushtoq, Mavjiy) / To‘plab, nashrga tayyorlovchi Madg‘oziyev I.Prof. Quronov D.ning umumiyl tahriri ostida. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

